



LEKSEMANING DENOTATIV VA KONOTATIV MA‘NOLARI XUSUSIDA

Tursunova Nodirabegim

Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada leksemaning denotativ va konnotativ ma’nolar o‘rtasidagi farqlar tahliliga, ularning kontekstga bog‘liqligi va frazeologik birliklardagi ahamiyatini ochib berishga bag‘ishlangan. Tadqiqot natijalaridan leksemaning semantik tuzilishini chuqurroq tushunishga hamda metaforalarning til tizimidagi o‘rnini aniqlashga va frazemalar tahliliga oid ilmiy ishlarda amaliy ko‘mak bo‘ladi. Ushbu tahlil zamonaviy tilshunoslik, semantika va leksikografiya uchun ilmiy asos yaratib, amaliy tarjima va til o‘rgatish jarayonlariga ham yordam berishi mumkin.

Kalit so‘zlar: leksema, denotativ ma‘no, konnotativ ma‘no, metafora, frazeologik birlik, semantika, tilshunoslik, leksikografiya.

KIRISH

Tilshunoslikda so‘zlarning turli ma‘no qatlamlari va ularning semantik o‘zgarishlarini tahlil qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi. So‘zlar denotativ va konnotativ ma’nolarga ega, bu esa ularning til tizimidagi o‘rnini va nutq jarayonida qanday ishlatilishini aniqlash uchun ilmiy tahlilni talab etadi. Masalan, "gold" (oltin) so‘zi dastlab qimmatbaho metallni bildirgan bo‘lsa, keyinchalik "golden opportunity" (oltin imkoniyat) kabi iboralarda metaforik ma‘no kasb etgan. Shunday qilib, til birliklarining asosiy va ikkilamchi ma‘nolari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish tilshunoslik nazariyasi va amaliyotida muhim ahamiyatga ega.

Shunday ekan, tadqiqotimizda quyidagi savollarga javob bersihga harakat qilingan: so‘zlarning denotativ va konnotativ sememalarining ajratilishi tilda qanday amalga oshadi va ularning kontekstga bog‘liqligi qanchalik kuchli? Ushbu tadqiqot orqali sememalar tizimi qanday ishlashini aniqlash va ularning frazeologik bog‘liqlik darajasini aniqlash mumkin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilshunoslikda dastlab so‘zning bevosita (D1) va vositali (D2) ma’nolarini farqlangan. Biroq, so‘z ma’nolarining yanada chuqurroq tiplari mavjud bo‘lib, ularning klassifikatsiyasi bo‘yicha turli olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. So‘z ma’nolarining turli tiplari haqida akademik V.V. Vinogradov o‘z ilmiy ishlarida to‘xtalib o‘tgan. U so‘z ma’nolarini quyidagi toifalarga ajratgan [1, 50]:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri nomativ ma‘no.

2. Hosilaviy-nominativ ma‘no.
3. Frazelogik bog‘langan ma‘no.
4. Konstruktsion jihatdan shartlangan ma‘no.

Maqoladagi D1 va D2 farqlari bevosita Vinogradovning nominativ va hosilaviy-nominativ ma‘nolari haqidagi qarashlari bilan bog‘liq. D1 – so‘zning to‘g‘ridan-to‘g‘ri nominativ ma‘nosiga mos keladi, D2 esa hosilaviy-nominativ yoki metaforik kengaygan ma‘noni ifodalaydi. Shuningdek, Sh. Bally,[3] L.V. Shcherba,[4] E. Benvenist [5], S. Ullman [6] va A. Vejbitska [7] kabi yirik semasiologlar ham so‘z ma‘nolarining tiplari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan [8]. N.D. Arutyunova so‘zlarning kontekstga bog‘liq bo‘lgan funksional ma‘nolari haqidagi tahlili orqali K1 va K2 sememalarining kontekstga bog‘liqligini ochib berishga harakat qildik [4]. Shuningdek, psixolingvistika va neyrotilshunoslik sohalarida ham so‘z ma‘nolarining shakllanishi va turli tiplarini ajratish tadqiq etilgan. Maqoladagi frazeologik birliklar (K3) haqida Vinogradovning "frazelogik bog‘langan ma‘no" tushunchasi mos keladi. Olim frazeologik birliklarning mustaqil denotativ ma‘noga ega emasligi va faqat barqaror birikmalarda ishlatilishi haqida ta‘kidlagan [2].

Ushbu tadqiqotda leksemalarning semantik qatlamlari va ularning tildagi turli ko‘rinishlarini aniqlash uchun leksik-semantik tahlil usuli qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi so‘zlarning denotativ (D1), hosilaviy-nominativ (D2) hamda konnotativ (K1, K2, K3) ma‘nolarini farqlash va ularning til tizimidagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

Mazkur tadqiqot deskriptiv va strukturaviy-semantik tahlilga asoslangan bo‘lib, leksemalarning turli kontekstlardagi ma‘nolarini aniqlash hamda ularning konnotativ xususiyatlarini o‘rganishga qaratildi. Tahlil uchun misollar Cambridge Dictionary [10] hamda Merriam-Webster Dictionary [11] onlayn lug‘atlar va akademik manbalardan olindi:

Bu lug‘atlar ingliz tilidagi so‘zlarning asosiy va ko‘chma ma‘nolarini rasmiy izohlari bilan taqdim etganligi sababli tanlangan. Ular orqali D1, D2, K1, K2 va K3 sememalarini ilmiy asosda tasniflash va farqlash imkoniyatini yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Leksema (yunoncha *lexis* – ibora, nutq o‘rami) – tilning lug‘at tarkibiga xos birlik bo‘lib, lug‘aviy ma‘no anglatuvchi unsur hisoblanadi [9, 18.]. Leksemaning mazmun jihatida semema deb ataladi. Shunga qaramay, bir leksema bir nechta sememaga ega bo‘lishi mumkin. Ularni quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

1. D1 (bevosita aks ettirish): Bu ma‘no to‘g‘ridan-to‘g‘ri narsa yoki hodisaga ishora qiladi. Masalan: *nose* (*burun*), *hand* (*qo‘l*), *blue* (*ko‘k*) *tongue* (*til*).

2. D2 (vositali aks ettirish): Bu ma‘no boshqa bir semema orqali bilvosita ma‘noni aks ettiradi. Masalan: *Nose* (of a ship) kemaning burni, *Hand* (of a clock) soatning qo‘li, *Chicken* (a person who is not brave) qo‘rqoq, *tongue* (a part of an object that is tongue shaped, especially the piece of material that is under the laces in a shoe) Obyektning til shakliga o‘xshash qismi, ayniqsa, oyoq kiyimining bog‘ichlari ostida joylashgan mato bo‘lagi.

D1 va D2 orasidagi farqni bir leksemada D1 va D2 ma’nolari mavjud bo‘lsa, odatda D1 ma’nosi ko‘proq qo‘llanadi va kontekstsiz ham tinglovchi yoki o‘quvchining ongida paydo bo‘lishi orqali ajratib olishimiz mumkin.

3. Konnotativ birinchi semema (K1) – bu ma’lum bir tushunchani denotativ semema (D1) orqali obrazli ravishda ifodalash usulidir. K1 faqat so‘z birikmalarida ishlatiladi, ya’ni leksema mustaqil holda qo‘llanganda bu ma’noni bera olmaydi. K1 semema denotativ ma’noga asoslangan hissiy yoki obrazli tasvir yaratadi. Masalan,

K1: *She has a **sharp tongue** and often criticizes others. (Uning tili o‘tkir, u boshqalarni tez-tez tanqid qiladi.)*

Mantiqiy bog‘liqlik: *Tig‘ o‘tkir bo‘lgani kabi, so‘zlar ham keskin yoki zararli bo‘lishligi.*

K1: *She needs **strong hands** to manage this project. (Ushbu loyihani boshqarish uchun kuchli rahbar kerak.)*

Mantiqiy bog‘liqlik: *Qo‘l kuchli bo‘lgani kabi, odamning rahbarlik qobiliyati ham kuchli bo‘lishi.*

K1: *He **followed his nose** and found the restaurant. (U hid bilish orqali restoranni topdi.*

Mantiqiy bog‘liqlik: Bu yerda "**nose**" nafaqat **hid bilish organi** sifatida, balki yaxshi sezgi yoki intuitsiya ma’nosida qo‘llangan, chunki burun hid bilishda ishlaydi va yo‘lni topishga yordam berishi mumkin.

4. K2 semema – **bu** so‘zning metaforik ma’nosi **bo‘lib**, avval D1 bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin hozirgi kunda bu bog‘lanish unutilgan yoki yo‘qolgan. Ingliz tilidagi idiomalar **K2** sememalar uchun misol bo‘la oladi, chunki ularning kelib chiqishi tarixiy jihatdan tushuntirilishi mumkin, lekin zamonaviy nutqda ular o‘zining asl denotativ ma’nosidan butunlay ajralgan.

K2: *He always has his nose in other people’s business. (U doim o‘zini begona ishga tiqadi.)*

→ **Tahlil:** *Burun bilan **begona ishga aralashish** o‘rtasidagi tarixiy bog‘liqlik aniq emas, lekin metafora sifatida saqlangan.*

K2: *He played his hand well in the negotiation. (U muzokarada o‘z imkoniyatini yaxshi ishlatdi.)*

→ **Tahlil:** *Hand metaforik ma’noda "**imkoniyat**" yoki "**strategiya**" sifatida ishlatilmoqda, asl ma’nosi unutilgan.*

K2: *She arrived out of the blue. (U kutilmaganda keldi.)*

→ **Tahlil:** *"Out of the blue" iborasida "**blue**" rang bilan bog‘liq emas, balki to‘satdan degan ma’noni bildiradi. Bu bog‘liqlik tarixan mavjud bo‘lsa-da, bugungi kunda bu aloqadorlik unutilgan.*

Bundan tashqari, ushbu sememalarga qo‘shimcha K3 mavjud bo‘lib, Konnotativ uchinchi semema (K3) – **bu** tilda hech qanday denotativ sememaga ega bo‘lmagan va faqat ma’lum

frazemalar tarkibida uchraydigan sememadir. K3 semema faqat ma’lum frazeologik birliklarda mavjud bo‘lib, mustaqil holda ishlatilmaydi.

Break a leg (*Omat tilash*)

- D1 mavjud emas, chunki *break* (sindir) va *leg* (oyoq) bu iborada haqiqiy sindirish ma’nosida ishlatilmaydi. *Break a leg on your performance tonight! (Bugungi chiqishingizda omading kelsin!)*
- Nega K3? "*Break a leg*" iborasi faqat ma’lum kontekstda mavjud bo‘lib, mustaqil "*break*" yoki "*leg*" so‘zlari bu ma’noni ifodalamaydi.

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, leksemalar turli semantik qatlamlarga ega bo‘lib, ularning ma’nosi bevosita yoki vositali, motivatsiyali yoki motivatsiyasiz, shuningdek, frazeologik birliklarga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, tilning leksik-semantik tizimi murakkab bo‘lib, unda asosiy (D1), kengaygan (D2), motivatsiyali (K1), motivatsiyasiz (K2) va faqat frazeologik birliklarda uchraydigan (K3) ma’nolar mavjud. Ushbu tahlil leksemalarning semantik va konnotativ ma’nolarini chuqurroq tushunishda hamda lingvistik tadqiqotlar va tarjima amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **Vinogradov, V. V.** (1947). *О теории словесного значения* [On the theory of verbal meaning]. Moscow: USSR Academy of Sciences.
2. **Vinogradov, V. V.** (1953). *Основные типы лексических значений слова* [Main types of lexical meanings of words]. Moscow: USSR Academy of Science
3. **Bally, C.** (1909). *Traité de stylistique française* [Treatise on French stylistics]. Genève: Georg.
4. **Shcherba, L. V.** (1940). *О частях речи в русском языке* [On parts of speech in the Russian language]. Moscow: Academy of Sciences of the USSR.
5. **Shcherba, L. V.** (1974). *Языковая система и речевая деятельность* [Language system and speech activity]. Leningrad: Nauka.
6. **Benveniste, É.** (1966). *Problèmes de linguistique générale* [Problems in general linguistics]. Paris: Gallimard.
7. **Ullmann, S.** (1951). *The Principles of Semantics*. Oxford: Blackwell.
8. **Arutyunova, N. D.** (1999). *Язык и мир человека* [Language and the human world]. Moscow: Yazyki Russkoy Kul'tury.
9. **Ҳожиёв А.** Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.
10. <https://dictionary.cambridge.org/>
11. <https://www.merriam-webster.com/>